



Uluslararası Türk Dünyası Araştırmaları Sempozyumu

Semerkant

12 - 16 Ekim 2018

ISBN: 978-605-80938-2-9

Editörler:

Dr. Öğr. Üyesi İbrahim BALIK

***Bu kitapta yer alan bildirilerin bilgi, dil ve görüş/fikir/yorum sorumluluğu yazarına/yazarlarına aittir.**

İÇİNDEKİLER

Kurullar	i
Katılımcı Listesi	iii
Takdim	v

Проф. Др. Муслихиддин МУХИДДИНОВ & Ўқит. Ш.ҚУТБИДДИНОВА, “Алишер Навоий Ҳикоятларида Комил Инсон Талқини”	1
Dots. Dr. Baxtiyor ERGASHEV, “Turkistonda Kolonial Boshqaruvi Tizimining O‘rnatalishi Manbashunosligi (Turkiston General-Gubernatorligi Mahkamasi Hujjatlari Asosida)”	9
Dots. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA, “Samarqandda So’nggi Yillarda Olib Borilgan Tadqiqotlarning Yakunlari (Samarqand Davlat Universitetining Arxeologik Izlanishlari Asosida)”	15
Dots. Dr. Muqaddas HASHIMOVA, “XX Asr O‘rtalarida Markaziy Osiyodagi Migratsion Jarayonlar va Ularning Sabablari”. 19	
Dr. Ro’ziqul ABRIYEV, “Mustqillik Yillarida Samarqand Tarixiy Obidalarida Amalga Oshirilgan Ta’mirlash Ishlari Tarixidan”	27
Dots. Dr. Gözal NORMURODOVA, “Buxoro Amirligida Ulamolarning Ijtimoiy-Siyosiy Hayotdagı O’rni”	33
Dr. Odil ERGASHEV, “Zarafshon Vohasida Oxirgi Yillarda Olib Borilgan Tadqiqotlarning Yakunlari (Toshga Ishlov Berish Ustaxonalari Misolida)”	39
Shohista HAMROQULOVA, “Qozog’Istondagi O’zbeklarning Respublika Fan Va Madaniyati Rivojiga Qo‘Shgan Hissasi”	45
Ögr. Gör. Sirajiddin USAROV, “Özbekistan ve Singapur Arasindaki Ticari-Ekonomin İş Birliği Hususunda”	51
Ibodat SATTAROVA & Murod XASANOV, “Ziyorat Turizmini Rivojlantirishda Samarqanddagı Muqaddas Qadamjolarning O’rni”	55
Toir MAXMUDOV, “XIV–XVI Asrlarda Markaziy Osiyoda Ilm-Fan”	61

Dots. Dr. Gözal NORMURODOVA

Samarqand Davlat Universiteti

BUXORO AMIRLIGIDA ULAMOLARING IJTIMOIY- SIYOSIY HAYOTDAGI O'RNI

*BUHARA HANLIĞINDA ULEMA SINIFININ SOSYO-POLİTİK
HAYATTAKI YERİ*

Annotatsiya

Bu maqolada Buxoro amirligining tarixida Amir Shohmurod (1785-1800) va Amir Haydar (1800-1826) hukmronlik yillari va undan keyingi davrlarida Buxoro amirligidagi ulamolar sinfining davlat va jamiyat hayotidagi roli, ularning ta'lim, davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni, xonlikdagi jamoatchilik fikrining shakllanishidagi nufuzi xususida ma'lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, Buxoro Qushbegisi arxivi va vaqfnomalarida aks etgan ulamolar vakillariga to'langan maosh va boshqa to'lovlar xususida ham izlanishlar bayon qilingan.

Kalit So'z va İboralar

Buxoro Amirligi, Ulamolar Sinfı, Amir Shohmurod (1785-1800) Va Amir Haydar (1800-1826), Qushbegi Arxiv, Vaqf, İjtimoiy Hayot

Özet

Bu makalede, Buhara Emirliği tarihinde, Amir Şahmurat (1785-1800) ve Emir Haydar (1800-1826) dönemlerinde ve daha sonrasında Buhara Emirliği'nde bulunan ulemaların devlet ve kamu yönetimi sistemide ve eğitimdeki nüfuzu, emirlikteki kamuoyunun şekillenmesindeki rolü incelenmiştir. Makalede Bukhara Kuşbegisi (sadrazam) ve vakıfların arşiv belgelerine dayanılarak ulema sınıfına yapılan ödemeler ile ilgili çalışmalar da var.

Anahtar Sözcük ve Cümleler

Buhara Emirliği, ulemalar sınıfı, Emir Şahmurat (1785-1800) ve Emir Heydar (1800-1826), Kuşbegi arşivi, vakıflar, sosyal hayat

Markaziy Osiyoda o'rta asrlar an'anaviy jamiyatlarning ijtimoiy tarkibi - turli va murakkab tuzilishdan iborat ijtimoiy tabaqa va qatlamlardan tashkil topgan bo'lgan. Bularning orasida oliy tabaqa yoki "oliynasab" guruhlar, ruhoniylar, savdogarlar va boshqa har bir

qatlamlar jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lgan. U yoki bu ijtimoiy qatlamlarning vazifalari va roli bilan bog‘liq masalalar bugungi kunda O‘zbekiston tarixida o‘z yechimini topmagan ilmiy muammolar jumlasiga kiradi. Ushbu masalani Markaziy Osiyoda o‘ziga xos mavqyeiga ega bo‘lgan Buxoro amirligi misolida tadqiq etish yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabaqaviylik tizimi mustahkam ildiz otgan O’rta Osyo xonliklari qatorida, Buxoro amirligida ham asrlardan saqlangan, an’anaviy tabaqaviy huquq va imtiyozlar bilan himoyalangan, huquq va majburiyatları odad yoki qonun bilan mustahkamlangan ijtimoiy tabaqa va qatlamlar mavjud edi. Shularning orasida ruhoniylar qatlami ko‘p sonli va ta’sir doirasi keng bo‘lgan tabaqa hisoblangan. Ruhoniylar aholining o‘ziga xos savodli, intizomli, vaqf mulklaridan ta’minot oluvchi tabaqasi sanalib, o’sha davrda son jihatdan aholining 3% ini tashkil etgan¹. Ruhoniylar orasida ulamolar*, ya’ni islom ilohiyotchilari, huquqshunos va olimlar jamosi jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida kuchli ta’sirga ega bo‘lib qolgan. Zero, islom dini jamiyatning asosiy mafkurasiga aylangan bir sharoitda, jamiyatning barcha sohalarida din va odatlar asosida o‘rnatilgan normalar, tartib-qoidalarga amal qilish va ularning barqaror rivojida ulamolarning roli muhim bo‘lgan.

Ijtimoiy tarkibi turlicha bo‘lgan ulamolar bir-biridan, nasliy mavqyei, davlat boshqaruvi pog‘onalarida egallagan amal va mansab darajalari, huquq va imtiyozlari, moddiy ta’moti, vazifa va mashg‘ulotlari bilan ajralib turgan diniy tabaqa vakillaridan iborat bo‘lgan. Bu tabaqa davlat boshqaruvi, diniy-ahloqiy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi vazifalariga ko‘ra, shayxulislom, qozi, mufti, rais, mudarris, imom, eshon va shayxlar singari ijtimoiy toifalarga bo‘lingan.

Ulamolarning oliy tabaqasiga sayyid va xo‘jalardan iborat oliynasab guruh vakillari kirgan, ular odatda o‘zlarini “oddiy fuqaro” (qoracha, qoralar)ga qarama-qarshi qo‘ygan va ijtimoiy munosabatlarni birmuncha yopiq olib borgan. Oliynasab ulamolarning nasliy ijtimoiy mavqyeiga ega bo‘lishi, ularning davlat boshqaruvi ishlarida eng yuqori amal pog‘onalarini egallashi barobarida, davlat hokimiyatiga siyosiy ta’siri ham sezilarli bo‘lgan. Bunday toifa

¹ Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. – Ташкент: Узбекское государственное издательство, 1926. – С. 8.

* Manbalarda “ulamo” (arab. “olim” so‘zining ko‘pligi) tushunchasi ostida “sipoh” va “raiyat” dan farqli ravishda umumiy ruhoniylar qatlami tushunilgan.

ulamolar qatoriga Mahdumi A'zam Kosoniy, Sayyid Ota, Jo'ybor xo'jalari va Xo'ja Axror xonadoni vakillarni misol keltirish mumkin¹.

Sadri Ziyo (Sharifjon mahzum) risolasida berilgan ma'lumotga ko'ra, hukmdorlarning olimlar va sayyidlarga bergan to'rtta diniy mansablari bo'lgan. Shularning orasida eng oliv mansab qoziylar amali bo'lgan. Ulardan oliv darajada shayxulisloq, keyin qozi ul-quzzot (*qozi kalon*) va undan keyinda qozi askar turgan². Keyingi ikkinchi martaba pog'onasida muftiylar va undan keyinda qo'shin muftisi (*mufti askar*) turgan. Uchinchi darajadagi mansab - muhtasib* bo'lib, u toshu-tarozi to'g'riligini tekshirish, o'rnatilgan narx-navo va diniy majburiyatlarni bajarilishini nazorat qilgan. Agar muhtasib sayyid bo'lmasa, shaharda sayyid bo'lmanan kishiga ham muhtasiblikka ruxsat berilgan. To'rtinchida darajada mudarris turgan.

Hukmdorlarning sayyidlarga bergan to'rtta vazifalarning yuqori martabasida Jo'ybor xo'jalari turib, ularga ichki va tashqi Jo'ybor boshqaruvi* berilgan. Undan keyinda turgan naqibning vazifasi yurishlar vaqtida qo'shinni otlantirish, joylaytirish singari ishlarni tashkil qilgan. Uchinchida turgan o'roqi kalon, sharitga muvofiq qo'shin orasida muhtasiblik majburiyatini bajargan. To'rtinchida naqshbandiya tariqatining vakili turib uning alohida vazifasi* bo'lgan³.

Ulamolarni jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ta'sir kuchidan foydalangan hukmdorlar ham imkon qadar o'zlarini ularga yaqin tutishga va shu asosda o'z hokimiyatni mustahkam ushlab turishga harakat qilgan. Ko'p hollarda ulamolar hukumat ishlariga aralashib, amirning u yoki bu qarorini o'zgartirishga majbur etgan. Ulamolar ba'zan, - deb ta'kidlaydi A. Semenov, - o'z maqsadlariga erishish

¹ История Узбекистана (XVI-первая половина XIX в.). –Ташкент: Фан, 2012. – С. 180.

²Шарифджан-Махзум. Бухарский трактат о чинах и званиях (и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре). Перевод и комментарии А.А. Семенова. // Советское Востоковедение. М.-Л.: АН ССР, 1948. Т.V. – С. 139-140.

* Buxoro amirligida muhtasib o'mida kundalik hayotda *rais* atamasi qo'llanilgan.

* Jo'ybor - Buxoro shahridan g'arbda joylashgan yer bo'lib, Shahrud kanali bilan sug'orilgan. Bu joyda Jo'ybor shayxlari yoki bo'lmasa xo'jalari istiqomat qilgan.

* Uning vazifasi shayx Bahovuddin Naqshbandiy mozori obodonchilagini boshqargan.

³ Шарифджан-Махзум. Бухарский трактат о чинах и званиях (и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре). Перевод и комментарии А.А. Семенова. // Советское Востоковедение. М.-Л.: АН ССР, 1948. Т.V. – С. 140-141.

yo‘lida ko‘psonli madrasa talabalaridan foydalangan, talabalarning qat’iy talablari esa ko‘pinchi oliy martabali kishilarning taqdirini belgilagan¹.

Ruhoniylar tabaqasining ijtimoiy-siyosiy, diniy-ahloqiy va ma’naviy-ma’rify hayotda tutgan muhim o‘rniga muvofiq, hukumat tomonidan bu tabaqaga keng ijtimoiy huquq, imtiyoz va yengilliklar berilgan. Bularning jumlasiga, turli xil vaqf mulklaridan tushgan daromad hamda alohida naqd va natura hisobidagi moddiy ta’minotlar kirgan. Masalan, Amir Shohmurod (1785-1800) davrida vaqf hujjatlari tiklanib, yirik yer mulkclarini ruhoniylar foydasiga qaytarish siyosati olib borilgan². Uning vorisi Amir Haydar (1800-1826) davrida, davlat tomonidan ta’minlanganlarning faqat 500 tasini nufuzli ulamolar tashkil etib, ular o‘z mavqyeidan kelib chiqib 100 dan 300 tanga miqdorigacha haq olishgan ekan³.

Diniy peshvo egalarining soliqlardan ozod bo‘lish imtiyozlari to‘g‘risida arxiv hujjatlari ma’lumot beradi. Xususan, Buxoro Qo‘shebegisi arxivida shunday mazmun aks etgan maktublarning birida, Hazrati Shayx xonaqohida maqsurxon (Qur’ondan qisqa oyatlarni o‘quvchi) bo‘lgan Qori Ochildi a’mo (ko‘r)ga tegishli 8 tanga tanob puli to‘g‘risida bo‘lib, u davlati oliy tarafidan *maof* (kechib yuborilgan) qilingan. 1305 h. (1887 m.y.)⁴. Shunga o‘xhash ma’lumot qo‘shebegi tomonidan Hasanmurod Xojiga yo‘llangan bo‘lib, eshon Abdurahim mudarrisda 55 tanga xirojiy tanob puli bo‘lib, u davlati oliy tarafidan *maof* qilingani va uning pullariga daxl qilinmasligi, so‘ralgan⁵.

Qishloq va shaharlarda aholini islom va shariat qonun-qoidalari asosida sud qilish qozi zimmasida bo‘lgan. Qozi huzurida mufti, a’lamlar ham bo‘lib, ular huquq (fiqh), hadislarni mukammal biluvchi ulamo sanalgan. Masalan, poytaxtdagi muftiylar 14 kishi bo‘lib, ular amir yoki qozikalon tomonidan tayinlangan. Ular shariatga asoslangan qarorlar – fatvo yoki rivoyat tuzib uni bosh qoziga bergen, qozi shunga asoslanib qaror chiqargan. Qozikalon “*qozi sha’ri sharif*”

¹Семёнов А.А. Очерк устройство центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Труды, том XXV. Выпуск 2. – Сталинабад, 1954. – С. 67-68.

²История Узбекистана (XVI-первая половина XIX в.). –Ташкент: Фан, 2012. – С. 188.

³ Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. - Москва, 1958. – С.130.

⁴ O‘zR MDA, И-126 –fond, 1-ro’yxat, 92- yig’ma jild, varaq - 3.

⁵ O‘zR MDA, И-126 – fond, 1- ro’yxat, 92- yig’ma jild, varaq - 4.

kabi sifat va “*shariatpanoh*” ya’ni, “shariat himoyachisi” unvonlariga ega bo’lgan¹. Muhim diniy amallardan biri rais hisoblangan. Bunday lavozim har bir viloyat va shahar hokimi huzurida bo’lib, shuningdek har bir shahar va qishloqlarda mahalliy raislar bo’lgan. Masalan, Buxoro shahri raisligiga sayyidlardan bo’lgan, nufuzli, har tomonlama ahloq-odobli kishi tayinlangan. Uning unvoni “*riyosatpanoh*” (boshqaruv himoyachisi) bo’lgan. Raisning vazifasi aholini diniy rasm-rusumlar, ahloqiy fazilatlari, bozorlarda savdo-sotiq tartibi, toshu-tarozi to‘g‘riligini nazorat qilishdan iborat bo’lgan.

Jamiyatda aholiga islomiy va ma’rifiy bilimlar berishda mudarris, domullalarning roli katta bo’lgan. Mahalliy muarixlar ma’lumotiga qaraganda, XX asrning boshida Buxoro shahrida 80 ga yaqin katta va kichik madrasalar bo’lgan hamda mudarrislar soni 800 nafarga yetgan. Mudarrislar “a’lo tadrisi” va “avsat (o’rta) tadrissi”, ya’ni ikki kategoriyaga bo’lingan². Madrasalarda faoliyat olib borganlarning asosiy moddiy ta’minoti vaqf mulki hisobidan bo’lgan. Bu borada Abdurauf Fitrat, 1913 yilda 3.776.000 tanga hisobida vaqf mablag‘i bilan ta’minlangan 72 madrasa nomini keltiradi³.

Shunday qilib, Buxoro amirligida ulamolar tabaqasining ijtimoiy asosini - boshqaruv, sud-huquq, ta’lim tizimi, diniy-ahloqiy sohalarda tayanch amal va vazifalarni bajargan ijtimoiy guruhlar tashkil etgan. Ulamoning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy mavqyei shuningdek, nasliy, tabaqaviy mansublik (oliynasab, urug’dor), merosiy amal va mansab pog‘onasi va uning hokimiyati, qonuniy yoki nasliy mustahkamlangan ijtimoiy huquq va imtiyozlar, moddiy ta’minotga ega bo’lishi singarilar bilan belgilangan. Ulamolar ta’sirida ijtimoiy-normativ munosabatlar jamiyat barqarorligini ijobiy va salbiy tomonlariga sezilarli ta’sir ko’rsatgan. Xususan, ularning roli orqali diniy-ahloqiy, milliy urf-odat va qadriyatlar barqarorligiga ta’minlangan, biroq boshqa tomondan diniy mutaassiblikka sabab bo’lgan eski qarashlar, boshqaruv, xo’jalik va ishlab chiqarish sohalarida yangi usullarni joriy etishga to’sqinlik singarilar jamiyat taraqqiyotiga g‘ov bo’lgan sabablardan bo’ldi.

¹ Айни Садриддин. Бухара. Воспоминания. – М., 1957. – С.225.

² Вохидов Ш. Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. –Б.34-35.

³ Фитрат А. Рассказы индийского путешественника. Перевод с перс. А.Н.Кондратеева. -Ташкент. 2007. –С.2.

Manba va adabiyotlar:

1. Айни Садриддин. Бухара. Воспоминания. – М., 1957.
2. Воҳидов Ш. Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
3. История Узбекистана (XVI-первая половина XIX в.). –Ташкент: Фан, 2012.
4. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. - Москва, 1958.
5. Семёнов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Труды, том XXV. Выпуск 2. – Сталинабад, 1954.
6. Фитрат А. Рассказы индийского путешественника. Перевод с перс. А.Н.Кондратьева. -Ташкент. 2007.
7. Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. – Ташкент: Узбекское государственное издательство, 1926.
8. Шарифджан-Махзум. Бухарский трактат о чинах и званиях. Перевод и комментарии А.А. Семенова. // Советское Востоковедение. М.-Л.: АН ССР, 1948. Т. V.
9. ЎзР МДА, И-126 –фонд, 1-рўйхат, 92- йигма жилд, варақ 3.